



SUV BOYLIKLARI VA ULARNI MUHOFAZA ETISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20448393>

*Guliston davlat pedagogika institute
Tabiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi
Mavlonqulova Shahlo Sherzod qizi
E-mail:shahlomavlonqulova@gmail.com*

Annotatsiya: Suv ona tabiatimizda eng kop tarqalgan noorganik modda. Tabiatda suvning qattiq, suyuq, gazsimon, fizik holda bo'lishi uning biosferada keng tarqalishiga imkon beradi. Ammo suvdan tartibsiz foydalanish natijasida turli hududlarda suv tanqschilligi yuzaga kelmoqda biz buni oldini olish uchun suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanishimiz kerak

Kalit so'zlar: Chuchuklashtiruvchi stansiyalar, dunyo okeani, organik, minerallar, kimyoviy, mexanik, bakteriologik, radioaktiv, chiqindilar, organik, noorganik, toksik, notoksik, ifloslanish, destruktiv, filtirlash.

Suv-tabiatning qimmatbaxo resursi bo'lib biosferaning mavjudligini taminlovchi, moddalar almashinuvi jarayonida o'ta muhim ro'l o'ynaydi. Suvning qudratli kuchi xaqida akademik V.I. Vernadskiy shunday yozadi "Suv bizning sayyoramizning shakillanishida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Xech qanday tabiy kuch o'z tasiri bo'yicha eng asosiy eng qudratli geologik jarayonlarni tartibga solishda suv bilan bellasha olmaydi" deb tarif berib o'tadi.

Gidrosfera suvining asosiy massasi Yer yuzini 71% egallab turuvchi Dunyo okenida toplangan. Dunyo okeanidagi suv massasining hajmi 1,386mln 500 ming km³ ga yaqin. Bu ko'rsatgich yerdagi umumiy suv zaxirasini 96,53% ga yaqin qismni tashkil etadi. Ammo quruqlikdagi va ichishga yaroqli suv miqdori 24190 ming km³ 1,8%

tashkil qiladi. Yer yuzida tarqalgan chuchuk suv zaxirasi 20-25 mlrd kishining ehtiyojini qondira oladi. Ammo hozirda suvdan tartibsiz foydalanish va haddan ortiq isrofgarchilik, aholi sonini kundankun tez suratlar bilan ko'payishi chuchuk suv tanqschilligiga olib kelmoqda.

Chukuk suv tanqschilligi faqatgina Shimoliy Afrika, Markaziy, janubiy, janubi-g'arbiy Osiyo davlatlarida emas balki rivojlangan davlatlarda ham sodir bo'lmoqda misol uchun AQSH aholisining 1/7 qismi suv yetishmovchiligini boshidan kechirmoqda va kelajakda Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va G'arbiy Yevropaning boshqa davlatlarida suv yetishmovchiligi sodir bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtda chuchuk suv tanqschilligini oldini olish uchun dunyo bo'yicha 800 dan ziyod chuchuklashtiruvchi stansiyalar ishlab turibdi va bularda 1,7mln m³ chuchuk suv



ishlab chiqarilmoqda. Bu suvlarning 90% ichimlik suvlari sifatida foydalanilmoqda. Suv manbalarining ifloslanishi-deb ularning zararli moddalar bilan ifloslanishi natijasida suv manbalarida biologik xususiyatlarning yo'qolishi yoki pasayib ketishi tushuniladi. Sun'iy ekologik ommillar, turli xil axlatlar, chiqindilar va inson faolyati bilan bog'liq hodisalar natijasida suvlarda ifloslanish yuz bermoqda.

Yerosti va yerusti suvlarining ifloslanishining bir qancha tiplari mavjud.

1. Mexanik ifloslanish-suv tarkibida mexanik zarrachalar miqdorining ortishi, asosan yer usti suvlarida kuzatiladi

2. Kimyoviy ifloslanishi-suv tarkibida organik va noorganik moddalarning mavjudligi. Bunday ifloslanish organik (fenollar, pestitsidlar, neft mahsulotlar), noorganik (tuzlar, kislatalar, ishqorlar), toksik (mishyak, simob, kadmiy birikmalar)

3. Bakteriologik va biologik ifloslanish-suv tarkibida turli xil mikroorganizmlar, zamburug' va suv o'tlarning mavjudligi.

4. Radioaktiv ifloslanish-yerusti va yerosti suvlarida radioaktiv moddalarning mavjudligi

5. Issiqlik ifloslanish-suv havzalariga issiqlik va atom elektr stansiyalarida ishlatiladigan suvlarning tashlanishi hisobiga yuzaga keladi

Hozirda ichimlik sifatida foydalaniladigan suvlarning ifloslanishida katta miqdorda oqava suvlar muhim ro'l o'ynaydi. Oqava suvlar sanoat korxonalarida va kommunal xo'jaliklarda foydalanilgan va yaroqsiz holatga keltirilgan

suvdir. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha suv havzalariga 500km³ dan ortiq oqava suv tashlanadi, shunda 200km³ ni sanoat oqavalari tashkil etadi va buning asosiy qismi ham kimyo sanoatiga to'g'ri keadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 1m³ tozalanmagan ifloslangan suvni tozlab yaroqli holga keltirish uchun 20-30m³ toza suv zarur boladi.

Oqava suvlar kelib chiqishiga ko'ra 4 ta kategoriyaga bo'linadi:

- 1) maishiy oqava suvlari,
- 2) sanoat ishlab chiqarishi oqava suvlari,
- 3) qishloq xo'jaligi oqava suvlari,
- 4) atmosfera oqava suvlari.

Oqava suvlar ifloslanish xarakteriga ko'ra ham guruhlariga bo'linadi: 1) issiqlik tasirida ifloslangan, 2) mineral tuzlar bilan ifloslangan, 3) qattiq zarrachalar bilan ifloslangan, 4) og'ir metallar bilan ifloslangan, 5) organik moddalr bilan ifloslangan, 6) biogen moddalar bilan ifloslangan, 7) neft mahsulotlari bilan ifloslangan. Neft bilan ifloslanish hodisasi faqatgina dengiz, daryolara emas balkiy okeanlarda ham jiddiy tus olmoqda. Neft va neft mahsulotlarini qoldiqlarini okeanlar va dengizga oqizish tobora kuchayib bormoqda. Dunyo okeaniga har yili 10 mln tonna neft van eft mahsulot qolqiqlari oqizilmoqda va bu o'simlik va hayvonot olamiga ta'sir ko'rsatmoqda. Okeanlar neft tashuvchi tankerlarining tasodifiy to'qnashuvi natijasida ham ifloslanmoqda. Masalan: 1979-yilda Karib bog'ozida ikkita neft tankerlarining to'qnashib ketishi natijasid 300 ming tonna neft oqib ketadi, 1989-yil Bering



dengizida Alyaska qirg'oqlarida Amerikaning yirik tankerlari halokatga uchraydi va 100-ming tonna neft dengizga to'kiladi. 1991-yilda Quvaytda boshlangan urush natijasida Persiv bo'g'ozini neft bilan ifloslanadi bu juda katta hajimdagi suvlarni yaroqsiz holatga keltirdi. Dengizlarning neft va neft mahsulotlari bilan ifloslanishini oldini olish manfaatida bo'lgan davlatlar birgalikda zaruriy choralar ko'ra boshladi. Bu boradi 1962, 1972 va 1973 yillarda imzolangan Xalqaro konvensiyalar dastlabgi qadamlardir. Suvlarni tozalash uchun bir qancha chora tadbirlar ko'rilmogda ifloslangan suvlarni tozalashning 3-xil usullari mavjud -Mevanik tozalash

-Kimyoviy tizalash

-Bialogik tozalash

Ichimlik suvlarini tejash va ularni isrof qilmaslik uchun: Toza suvni har tomonlama tejash, ayrim ishlab chiqarish turlarini suvsiz texnologiyaga o'tqazish kerak, suv resurslarini kamayib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun daryo va ko'llarga oqava suvarning tashlanishiga imkon qadar yo'l qo'ymaslig kerak, keyinchalik butunlay to'xtatish zarur. Sanoat korxonalaridagi agregentlarni sovutishda suvni sovuq havo oqimi bilan almashtirish zarur buy o'lga o'tish 70-90% suvni tejashga imkon beradi. Daryo suvlarini tartib bilan boshqarib turish.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

1. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari 2004-yil, P.S. Sultonov, B.P. Axmedov
2. Ekologiya va atrof muhitni muhofazasi 2020-yil, S. Buriyev, D. Maxkamov, V. Sherimbetov
3. Ekologiya 2018-yil Z.M. Sattorov
4. Ekologiya, Biosfera va tabiatni muhofaza etish 2005-yil, Ahmadqul Ergashev, Temur Ergashev
5. Sanoat Ekologiyasi 2007-yil, D. Yormatov
6. Tabiiy muxitni muxofazalashning geoekalogik asoslari 1999-yil, E.V. Qodirov, M.Sh. Shermatov, X.A. Axmadov, A.A. Odilov